

TILLARARO FRAZEOLOGIMZLAR: QIYOSIY TAHLIL. (TOJIK, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

Jamshed Norkulovich Mirzoyev

Samarqand davlat chet tillar instituti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi

Telefon: +998 97 927 74 09; e-mail: jamesmirzo@mail.ru

Annotatsiya. Frazelogizmlarni boshqa tillarga tarjima qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, tarjima jarayonida frazeologizmlarning semantik va stilistik vositalarni saqlab qolish tarjimon oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada tojik tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek va ingliz tillariga tarjima qilinish, tarjima jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Frazelogik birliklar, qiyosiy tahlil, madaniy ahamiyat, tarjima, idioma, madaniy ekvivalentlik, semantika.

KIRISH.

Frazelogik birliklar har bir tilning boy xazinasini hisoblanadi. Ular xalqning madaniyati, tarixi, urf-odati va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, tilda asosan tayyor ibora, so‘z birikmalari shaklida ifodalanadi. Frazelogik birliklar tilda ko‘p yillik tarixiy jarayon mahsuli bo‘lib, bevosita o‘xshatish, kinoya, ramziy ma’nolarni o‘zida aks ettiradi.

Frazelogik birliklar – bu doimiy so‘z birikmalari bo‘lib, ular bir butun ma’no anglatadi va so‘zma-so‘z tarjima qilinganda asl ma’nosi buziladi. Tilshunoslikda frazeologizmlarning quyidagi asosiy turlari ajratiladi:

Idiomalar: masalan, Boshi osmonda; On the nine cloud; It yotish mirza turish; Dog’s life.

Maqollar: masalan, Qarilikni donolik bezar – yoshlikni kamtarlik; Young men think old men fools, and old men know young men to be so.

Matallar: masalan, Kiyimning yangisi yaxshi – do‘stning eskisi; Old friends and old wine are best; Yolg‘onchining tili kalta; Lies have short legs.

Maqol, matal hamda idiomalar tarjimasi muammosini tahlil qilganda, mavjud adabiyotlarda ushbu masalaga oid turli xil yondashuvlar va qarashlarga duch kelish mumkin. Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch tamoyil hukm suradi: 1. Asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o‘girilayotgan tildan mos keluvchi muqobil variant topib qo‘yish; 3) frazeologizmi, aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi.

Frazelogizmlar tilning obrazlilik va ifoda vositalarining xilma-xilligini oshiradi. Ular tarjimada esa eng ko‘p muammo keltirib chiqaruvchi birliklardandir.

Tojik tili forsiy tillar guruhiga mansub bo‘lsa-da, uzoq yillar davomida o‘zbek tili bilan yonma-yon yashab, ko‘plab umumiy va yaqin frazeologik birliklarni shakllantirgan. Masalan:

Аввал андеша баъд гуфтор (maqol) – Avval o‘yla keyin so‘yla – First think then speak.

Аз гахвора то қабр илм омӯз (hadis) – Beshikdan qabrgacha ilm o‘rgan – Live and learn.

Дилбастаи касе шудан (idioma) – bu ibora "kimnidir sevib qolmoq" degan ma’noni beradi. O‘zbek tilida ham shunga yaqin "ko‘ngil bermoq", "bog‘lanmoq" degan frazeologizmlar mavjud. Ingliz tilida esa, ushbu idiomaning analogi, “to fall in love” hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi frazeologik moslik ancha yuqori. Bu, avvalo, hududiy yaqinlik va tarixiy-madaniy aloqalar natijasidir.

Tojik tilidan o‘zbek tiliga frazeologik birliklarni tarjima qilish nisbatan oson bo‘lib, ko‘pincha ekvivalentlar mavjud bo‘ladi. Biroq ayrim hollarda ularning to‘liq ma’nosini yetkazish uchun kontekstga mos tarzda tarjima qilish zarur bo‘ladi.

Misol tariqasida Sadridin Ayniyning “Eski maktab” hamda “Sudxo‘rning o‘limi” qissalarida uchraydigan ayrim frazeologik birliklarning o‘zbekcha va inglizcha tarjimalarini tahlilga tortamiz. Masalan:

Халифа бо бардошта шудани чўби мактабдор мананди саги бегонаи барои ангурдуздй ба боғе даромада ва ба боғбон вохўрда, фарёдкунон ба ҳар тараф меғурехт. (Мактаби кўҳна, с. 13)

Xalifa esa domlanning tayog‘i ko‘tarilishi bilan uzum o‘g‘irlash uchun boqqa kirib, bog‘bon tayog‘iga uchragan it kabi, dod solib, talvasalanar, har tomonga qochar edi. (Eski maktab, b. 10)

Ushbu ibora o‘zbek tiliga tarjima qilinganda frazeologik obraz yaxshi saqlanib qolgan.

Yana bir misol:

Ҳарчанд аз тарси чўби мактабдор сари худро боло накунанд ҳам, ба ман нигоҳ карда ва ангуштҳояшонро пеши чашмҳояшон оварда, маро ба якдигар нишон меоданд. (Мактаби кўҳна, с. 10)

Bolalar ham menga qarar va domla tayog‘idan qo‘rqanlari sababli boshlarini ko‘tarmagan holda barmoqlarini ko‘z oldilariga keltirib bir-birovlariga meni ko‘rsatar edilar. (Eski maktab, b. 7)

Bu ibora ham o‘zbek tilida yaxshi ifodalangan, tarjimada so‘zma-so‘zdan ko‘ra, ma’noga urg‘u berilgan.

Ingliz tiliga tarjima jarayonida esa madaniyatlararo farq, ifoda vositalarining xilma-xilligi va semantik mosliklarning yo‘qligi muammo tug‘diradi. Ba’zi tojikcha iboralar ingliz tilida ekvivalent tarzda mavjud bo‘lsa, ayrimlari esa tushuntirish asosida (descriptive) yoki erkin tarjima yordamida ifodalanadi.

As soon as the stick was in the teacher’s hands, the Caliph, like a dog caught in a strange garden, ran around the room screaming (The Old School, p. 14)

Ingliz tilida tarjima frazeologik obrazni qisman saqlaydi, biroq "uzum o‘g‘irlash" elementi yo‘qolgan.

Without raising their heads, fearing the teacher’s stick, they pointed at me with their fingers pressed to their right eye. (Old school, p. 9).

Ushbu tarjimada frazeologizmning madaniy konteksti oddiyroq qilib tushuntirilgan.

Frazeologik birliklarning tarjimasi jarayonida ko‘plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, quyidagi gapga e’tibor qaratamiz.

Шумо чор танга диҳед! Ман ба ин суханони Қоришкамба чизе нағуфта ва гўё ки сухани ўро ношунида бошам, худро ба нофаҳмй задам. (Марги судхўр, с. 20)

“Insof qiling uka,” dedi Qori Ishkamba menga qarab, “bularning har biriga to‘rt tangalik masalliq sarf bo‘lgan, aqalli o‘sha masalliqning pulini bering, tikish haqini sizga bag‘ishlasinlar”. (Sudxo‘rning o‘limi, b.14)

Ingliz tiliga esa faqat: “I remained silent, pretending not to understand his words” deb o‘girilgan. (The Death of the Usurer, p.47)

Bu frazeologizmning ingliz tilida aniq ekvivalenti yo‘q va u tushuntirish orqali ifodalangan. Tarjima jarayonida madaniy tafovutlar va ma’no yo‘qolishi ko‘zga tashlanadi.

Xulosa

Frazeologik birliklarni tarjima qilish har doim ham oddiy jarayon emas. Ayniqsa, ikki xil til oilasiga mansub tillar o‘rtasida (masalan, tojikcha va inglizcha) frazeologik birliklarni tarjima qilishda madaniyatlararo tafovutlar, leksik va semantik o‘xshashliklarning yo‘qligi muammolarni yanada kuchaytiradi.

Tojik va o‘zbek tillari o‘rtasida madaniy va tarixiy yaqinlik sababli frazeologik birliklarning tarjimasi nisbatan osonroq kechadi va ko‘p hollarda ekvivalent iboralar topiladi. Biroq ingliz tiliga tarjimada ko‘pincha erkin yoki tushuntirish asosida tarjima qilinadi, ba’zan esa asl ifodaning obrazlilik va ma’nosi yuqolib qoladi.

Shuning uchun tarjimon frazeologik birliklarni tarjima qilganda ularning madaniy va kontekstual mohiyatini chuqur anglab, zarur bo‘lsa, izohlar yoki tushuntirishlar kiritishi lozim. Bu nafaqat tarjimaning sifatini oshiradi, balki til va madaniyatlararo ko‘prik vazifasini bajaradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Айни Садриддин. Марги судхӯр. – Қисса - Душанбе, 2010, «Адиб», 220 сах.
2. Ayniy Sadriddin. Sudxo'ring o'limi.- Qissa. – Toshkent. «Yoshlar nashriyot uyi», 2018. – 152 bet.
3. Айни Садриддин. Смерть ростовщика: (Повесть и очерк: Пер. с тадж.) – Душанбе: Адиб, 1987. – 224 с.
4. Ayni Sadriddin. The Death of the Usurer. - Story. – Dushanbe, 2024, “R-graph”, 296 p.
5. Айни С. Мактаби кӯҳна. – Повест. Душанбе, 2010, ТҚБ «Истиқбол», 56 с.
6. Айний С. Эски мактаб. Повесть. – Т.: «Ёш гвардия», 1982. – 48 б.
7. Ayni S. Old school. Story. Translated and edited by John Smith. November 19, 2020, 58 p.
8. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди якум. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, Душанбе, 1963 – 971 с.
9. Фозилов М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони ҳозираи тоҷик (фарҳанги фразеологӣ). Ҷилди дуюм. Нашриёти «ИРФОН», Душанбе, 1964 – 807 с.
10. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, “Tarjima nazariyasi”, o'quv qo'llanma, T. 2012. 157 b.
11. Ibayev A.J. Komparativ sintaktik qurilmalar tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida// “So'z san'ati” xalqaro jurnali. –Toshkent, 2021. –№1. –В. 97-102. (10.00.00.№31)
12. Мачидов Х. Фразеологияи забони ҳозираи тоҷик, (Дастури таълимӣ), Душанбе, 1982, 107 с.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1978, - 407 б.
14. Ғ. Саломов. Таржима назарияси асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1983, - 232 б.
15. Шодиев С. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари // Ўзбекистон хорижий тиллар(электрон илмий-методик журнал). - Тошкент, 2017. -№2,16. –Б.246-250. (10.00.00. №17)
16. Shodiyev S. Set phrase as a Syntactic Phenomenon // International Journal of Science and Reseach(IJSR). Volume 8 Issue 10, October, 2019.–P. 867-869 (№23. SJIF: 7.426)
17. Asror, Y. (2023). LINGVOKULTUROLOGIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA LEKSIKOGRAFIYANING QO 'LLANISH O 'RNI VA AHAMIYATI. IQRO JURNALI, 1(2), 311-316.